

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDAGI
O'ZIGA XOS JIXATLARI**

Gulchehratogaymuratova@gmail.com

Tagaymuratova Gulchehra Tuychiyevna

Guliston Davlat Universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim tizimida yaratilgan platforma va dasturlar, zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning amaldagi holati va o'ziga xos jixatlari borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: huquqiy madaniyat, huquqiy munosabat, huquqiy ong, huquqiy tarbiya, huquqiy davlat.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar keng qo'llanmayotgan sohani yoki faoliyat turini topish qiyin. Raqamli texnologiyalar davlat va jamiyat hayotiga tez moslashib, yoyilishiga u yaratayotgan qulaylik va imkoniyatlar sabab desak xato bo'lmaydi. Insoniyatning yangi davrda barcha fan sohalarida erishgan yutuqlari texnika va texnologiya sohasidagi yutuqlari kabi hayratlanarli emas, chunki boshqa fanlardagi ko'pgina yutuqlar texnologiya fani yutuqlari ta'siri va zamirida bo'layotganligi ham bunga misoldir. O'tgan asrdagi olamshumul kashfiyotlar ko'p jixatdan insonning intellektual salohiyatiga asoslanib amalga oshirilgan bo'lsa, bugun ilm fan zamonaviy ilm axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida shakillanmoqda. Ma'lumki texnologiyani o'quv jarayonida qo'llash, shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanish XX asrning 70-80 yillarida boshlangan va bugungi kunga kelib uning qo'llashdagi mazmun va mohiyat ko'lami ancha taraqqiy etgan va ko'lami kengaygan. Zamonaviy dunyo yoshlariga innovatsion ta'lim berish va bu orqali davlat va jamiyat farovonligiga erishish taraqqiyot uchun eng samarali tanlov bo'lib qoldi. Fan va texnika yutuqlar jamiyat va insoniyatlarga ko'plab qulayliklar, imkoniyatlar, olib kelish bilan birga uning qaysidir jabhada muammoli vaziyatlarni keltirib chiqarmasligiga kafolat yo'q. Shuning uchun uning qulaylik va imkoniyatlari bilan birga jamiyat uchun, kelajak uchun qanday xavflari mavjud bo'lishi mumkinligi va uni bartaraf etish yo'llarini hozirdanoq ishlab chiqmoq lozim. Raqamli texnologiyalarning ta'limning barcha bosqichlarida kirib kelgan. Bu albatta yaxshi, ammo undan foydalanayotgan yoshlar undan foydalanish madaniyatiga, axloqiy me'yorlariga rioya qilishlari lozimligi, ularning turli axborot xavflaridan himoyalanganligi va buning natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavflar ham borligini unutmasligimiz kerak. Insoniyatga kirib kelayotgan qulaylik va taraqqiyot

faqat uning “buguni” uchun emas, balki uzoq kelajagi uchun ham foydali bo’lmog’i lozim.

Inson kapitali zamonaviy jamiyatning eng qimmatli resursidir. Respublikada 36 milliondan oshiq aholi istiqomat qiladi, shundan 18 millioni (60 foizdan ortig’i) 30 yoshgacha bo’lgan yoshlardir. Dastlabki prognozlariga ko’ra, 2030-yilga borib O’zbekiston aholisi 40 million kishiga ko’payadi, agar bu tendentsiya davom etsa, ularning 24 millionini yoshlar tashkil qiladi. Bundan tashqari, Prezident O’zbekistonni mintaqaviy IT-markazga aylantirish vazifasini qo’ydi. Bu borada yoshlarni IT-ta’lim sohasiga keng jalb etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Oxirgi besh yilda oliy ta’lim muassasalari soni 160 taga yetdi va O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga ko’ra bu raqam 200 taga yetkaziladi. Yagona integratsiyalashgan elektron tizim (HEMIS) Jahon banki loyihasi doirasida yaratilgan, shuningdek, u respublikadagi barcha talabalar (jumladan, xususiy va xalqaro universitetlar), ularning davomati va natijalari, shuningdek, mamlakat o’qituvchilari, elektron resurslar, o’quv dasturlari, ta’lim mazmuni va boshqalar to’g’risidagi ma’lumotlar bazasini o’z ichiga oladi.

Raqamli texnologiyalar eng katta yutug’i – tashkiliy, moliyaviy va inson harajatlarini tejash orqali iqtisodiy samaradorlikni keskin ravishda oshirish imkoniyatidir.

Ta’lim tizimida yaratilgan platforma va dasturlar ta’lim jarayoni uchun qulay va imkoniyatlari keng. Oliy ta’limni raqmlashtirish bo’yicha yetakchilik qilib kelatotgan xorijiy davlatlar: Fillandiya, Singapur, Yaponiya va shu kabi boshqa davlatlar ta’lim platformalari orqali sifatli ta’lim xizmatlarini ko’rsata olishga muvafaq bo’lishdi va raqamli texnologiyalar bo’yicha raqobatbardoshlik jixatidan Jahon reytingida yuqori o’rinlarni egallash imkoniyatiga ega bo’lishdi. O’zbekiston Oliy ta’limlarini ham dunyoning yuqori reytinglari qatoriga ko’tarish uchun zamonaviy dunyo yaratayotgan texnologik imkoniyatlardan samarali foydalanish lozim.

Ta’lim sohasida raqamli texnologiyalar masalasi bilan quyidagi olim va o’qituvchilar shug’ullanishdi: M.I. Makseenko, L.V. Shmelkova, E.L. Vartanova, S.S. Smirnov, A. Marey, L.V.Orlova, A.Yu. Uvarov va boshqalar^[1].

Raqamli texnologiyalardan foydalanish talabalarni ta’lim jarayoning faol sub’ektiga aylanishi uchun sharoit yaratib, passiv idrokdanfaol harakatga o’tadiva vazifalarni bajarishiga yordam berdi. Raqamli texnologiyalarning asosiy turlari quyidagilardir: mobil ta’lim, bulutli texnologiyalar, onlayn kurslar, o’yin va veb-kevestlar.

Mobil ta’lim texnologiyasidga ta’lim sohasida talab katta. U bilim va axborotlarni almash, jamoaviy ishlashga qulayligi va samarali, vaqtga va makonga daxl qilmasigi va boshqa qulayliklarini aytish mumkin.

Bulutli texnologiyalar tarmoqqa qulay kirish imkoniyatiga ega bo'lib, katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlashga imkon beradi va undan minimal boshqaruv harakati bilan foydalanishga imkon beradi, ya'ni bulut ma'lumotlarni tarqatish, qayta ishlash va saqlash. Shunday qilib, ushbu texnologiya tufayli o'qituvchilar va talabalar guruh ishlarini masofadan turib bajarishlari mumkin. Bulutli texnologiyani masofaviy ta'lim asosida foydalanish mumkin. Masalan, o'qituvchi universitetning elektron tizimiga topshiriqlar, amaliy ishlar va boshqalarni joylashtirishi mumkin yozma topshiriqlar, bu erda talabaniing vazifasi o'qituvchi tomonidan yaratilgan hujjatdagi mashqlarni bajarishga qaratiladi. Bu quyidagi turdagi vazifalar bo'lishi mumkin: jadval yoki matndagi bo'shliqlarni to'ldiring, savollarga javob bering bering yoki fikrni davom ettiring. Talaba tomonidan bajarilgan ish topshiriqlarni oqituvchi tekshiradi va baholaydi.

Keyingi raqamli ta'lim texnologiya onlayn kurslar bo'lib, ular o'qituvchi, mutaxxasis tomonidan taqdim etiladi va undan talabalar masofadan foydalanishlari mumkin. Buning o'ziga xos xususiyati va afzalligi texnologiya shaxsga qaratilgan. Trening har qanday qulay vaqtda amalga oshiriladi, talaba uchun eng qulay vaqt va shaklda turli sohalarda malakali ta'lim olish imkonini beradi. Onlayn ta'lim ikki shaklda amalga oshirilishi mumkin sinxron va asinxron o'rganish kabi shakllar.

Sinxron ta'lim o'qituvchi va talabani ma'lum bir vaqtda o'qitishni o'z ichiga oladi, asinxron ta'lim esa talabani unga qulay bo'lgan istalgan vaqtda o'qitishni anglatadi, ya'ni. o'qituvchi kursni ishlab chiqadi va uni internet platformasiga yuklaydi va talabalar taqdim etilgan material bilan tanishadilar va vazifalarni to'ldiradilar. Ushbu texnologiyaniing afzalligi shundaki o'quvchilar o'zlarining individual qobiliyatlaridan kelib chiqib, materialni o'rganishga, ularni tushunish va eslash qolishgan va mavzuni qayta ko'rib chiqish uchun qancha vaqt kerak bo'lsa shuncha vaqt sarflaydi va bu talabaga mavzuni to'la o'zlashtirish imkonini beradi.

Gamifikatsiya-bu o'yin elementlarini ijtimoiy faoliyatning boshqa turlaruga tadbiiq etilishi. Gamifikatsiya-bu o'yin mehanikasini ishtirok etishini oshirish uchun veb-sayt va onlayn ta'limni boshqarish tizimi va xodimlarning o'zaro fikr almashishlari va aloqalarni rag'batlantirishdir. Ta'limda gamifikatsiya xodimlar va talabalar uchun muhim hisoblanadi va ta'lim olishni ma'lum ma'noda osonlashtiradi. Bu tizimda o'qituvchi darsni oddiygina ma'ruza, seminar, mavzu doirasida savol javob qilib emas, balki darsni qiziqarli o'yinlar va guruhlararo musobaqalar orqali tashkil qiladi. O'yin elementlarini yutuqlar, ballar, peshqadamlik jadvali kabilar tashkil qiladi. Gamifikatsiya faoliyatda ishtirokchilarning hamkorlikda harakat qilish, o'z-o'zini rivojantirishga motivatsiya olish, faoliyatdan zavqlanish, muammolarni birgalikda hal qilish kabi ko'nikma va malakalari rivojlanadi. Ta'limda bu Moodle platformasi orqali amalga oshiriladi. Bunda dinamik o'quv muhiti, mukammal pedagogik mahorat va kasbiy bilimga ega o'qituvchi talab qilinadi.

Zamonaviy texnologiyalar yutuqlari insoniyatga yaratayotgan qulaylik va imkoniyatlari taxsinga loyiq, lekin uning imkoniyat va qulayliklari ko'lamini yanada kengaytirib borayotganligi texnologiya va ro'yxatlashgan davrga kirib borayotganligimizni ham e'tibor talab etadi. Ayni paytda, Mc Kinsey kabi kompaniyalarning hisobotlariga ko'ra, 2030 yilga borib, ish jarayonlarini avtomatlashtirish tufayli 800 million kishi ishsiz qolishi mumkin va so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik xodimlar yaxshi haq to'lanadigan ishlarni olish uchun zarur tayyorgarlik yoki ko'nikmalarning yetishmasligidan xavotirda. Ushbu tendentsiyalarni boshqarish ta'limga bo'lgan yondashuvimizni o'zgartirishni talab qiladi, masalan, fan, texnologiya, muhandislik va matematikaga e'tibor qaratish; muloqot qobiliyatlari va chidamlilikni o'rgatish va odamlarga hayoti davomida qayta tayyorlash va uzluksiz ta'lim olish imkoniyatini berish orqali [2]. Hozirgi zamon texnika inqilobining xarakterli xususiyati uning sanoat bilan birga ijtimoiy hayotning turli sohalari: qishloq xo'jaligi, transport, aloqa, tibbiyot, ta'lim, maishiy xizmat kabilarni ham qamrab olganligidadir.

Hindistonning Trivandram shahridagi o'rta maktabda sun'iy intellektga ega Iris ismli ilk o'qituvchi-robot ish boshladi. Bu haqda "Pravila jizni" nashri xabar berdi. Iris ismli bu robot uchta tilda gapiradi: ingliz, hind va malay. U ovoz bilan turli mavzulardagi savollarga javob bera oladi va o'quvchilar bilan har xil mavzularda muloqot qiladi. Iris dastlab Hindiston Transformatsiya Milliy Instituti tomonidan maktablarda darsdan tashqari mashg'ulotlarni rivojlantirishga qaratilgan loyiha doirasida ishlab chiqilgan[3].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak raqamli texnologiyalar bugungi kunda turli sohalarga kirib kelib uning rivojiga xizmat qilmoqda. Uning imkoniyat doirasi texnologik izlanishlar natijasida kengayib bormoqda. O'rganilgan va qayd etib o'tilgan ma'lumotlarga asoslanib podustriyal dunyoda innavatsiyon texnologiyalarning ildam taraqqiyoti va uni davlatlar taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati ortib borayotgan bugungi kunda, uning rivoji qaysidir ma'noda ta'lim jarayonlari bilan bog'liqligi va aks etishi kelajak taraqqiyoti uchun zamin bo'lib xizmat qiladi. Bu o'rinda esa oliy ta'limning ham o'rni va ma'suliyati muhim ma'no va ahamiyat kasb etishi aniq haqiqatdir. Shunday ekan raqamli texnologiyalarni turli sohalarga va shu bilan birga oliy ta'lim tizimiga joriy etish, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning yangi va yanada qulay dasturlarini o'rganish va yosh avlodga raqamli texnologiyalardan foydalanish ma'daniyati, ko'nikmasini shakllantirish ta'lim samaradorligini oshirishga, shu bilan birga jamiyat va davlat farovonligi, ravnaqiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Вишневецкая Г.В. Технологический подход в педагогическом процессе высшей профессиональной школы// Известия Пензенского государственного педагогического университета им. В.Г. Белинского. 2008. №6 (10). С. 235-239

2. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS http://www.newjournal.org/Volume-19_Issue-7_December_20224o'rgatish
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.02.2021 yildagi PQ-4996-son.
4. TAGAYMURATOVA, G. (2024). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDAGI O'RNI VA UNING QISQACHA TARIXI. *Journal of Fundamental Studies*, 2(2), 41-45.
5. Tuychiyevna, T. G. (2024). DIGITAL TECHNOLOGY AND ITS CAPABILITIES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *International Journal Of Management And Economics Fundamental*, 4(02), 27-31.
6. Tagaymuratova, G. T. (2023). BIOTIBBIYOTDA ZAMONAVIY ILMIY YANGILIKLAR VA ULARNING AXLOQIY MUAMMOLARI. *Academic research in educational sciences*, 5(NUU Conference 2), 677-684.
7. Tog'Aymurotova, G. T. Y. (2022). BIOETIKANING PAYDO BO'LISHI UCHUN TARIXIY ZARURIYATNING YUZAGA KELISHI. *Academic research in educational sciences*, 3(NUU Conference 2), 479-486.
8. Shukurova, S. (2023). BULLYING IN SCHOOLS: THE STATE OF KNOWLEDGE AND EFFECTIVE INTERVENTIONS. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(6 Part 4), 74-77.
9. Sevara, S. (2023). AIDS PREVENTION AND HEALTH AMONG STUDENTS IN THE 21 ST OF CENTURE. *Academia Science Repository*, 4(6), 728-732.
10. Xolnazarova, D., & Ungarova, I. (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLI IJTIMOY HIMOYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(4), 45-47.
11. Xolnazarova, D., & Tangirberdiyev, S. (2021). TALABALAR HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY TA'LIM-TARBIYANING ROLI. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 1313-1317.
12. Mamatmuratovna, K. D., & Gapparovich, T. S. (2021, April). SYSTEM OF PREPARATION OF YOUNG PEOPLE FOR SPIRITUAL, LEGAL AND LEGAL EDUCATION. In *Archive of Conferences* (Vol. 23, No. 1, pp. 168-171).
13. Xolnazarova, D. M. (2022). METHODS OF DEVELOPING LEGAL CULTURE IN STUDENTS. *Conferencea*, 126-134.
14. Xolnazarova, M. (2022). Factors and socio-psychological causes of behavior deviation in minors. *NeuroQuantology*, 20(20), 1781.
15. Xolnazarova, M. X. (2019). GENDER EQUALITY AS A SOCIO-HISTORICAL CATEGORY. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(1), 91-95.
16. Nishanova, Z. T., Kamilova, N. G., Abdullayeva, D. U., & Xolnazarova, M. X. (2017). Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. *Toshkent-2017 yil*.
17. Xolnazarova, M. X., & Muxliboyev, M. Q. Yosh va pedagogic psixologiya. *Fan va texnologiya nashriyoti*.
18. <https://daryo.uz/2024/03/11/hindiston-maktablarining-birida-suniy-intellektga-ega-oqituvchi-robot-ish-boshladi>

